



Дунёда илмдан бошқа нажот йўқ
ва ҳеч қачон бўлмагай. Имом Бухорий



Имом Бухорий сабоқлари

маънавий-маърифий, илмий-адабий журнал

Nº3 / 2018



Ortobekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaması büzeridagi:
IMOM BI'NORİY XALOARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI



IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

مدى الامام البخاري السمو للبحوث العلمية

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45	46	47	48	49	50	51	52	53	54	55	56	57	58	59	60	61	62	63	64	65	66	67	68	69	70	71	72	73	74	75	76	77	78	79	80	81	82	83	84	85	86	87	88	89	90	91	92	93	94	95	96	97	98	99	100
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45	46	47	48	49	50	51	52	53	54	55	56	57	58	59	60	61	62	63	64	65	66	67	68	69	70	71	72	73	74	75	76	77	78	79	80	81	82	83	84	85	86	87	88	89	90	91	92	93	94	95	96	97	98	99	100

IMAN BUKHARI
INTERNATIONALSCIENTIFIC-RESEARCH INSTITUTE OF THE
FEDERAL ACADEMY OF SCIENCE OF THE
RUSSIAN FEDERATION

ЦЕНТР ЦЕНТР ИМАМА БУХАРИ

© 2021 The Author(s). Published by Elsevier Ltd. This is an open access article under the CC BY 4.0 International license (<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).
Tel.: +380 366 477 51 78; Mobile: +38095 998 27 62; +38094 180 63 91; +38092 235 76 64
E-mail: info@nau.edu.ua
DOI: 10.1016/j.sbspro.2021.06.001. National Bank of Ukraine, Sorokyn Branch

Web site: www.bell.com; e-mail: bell@bell.com

Ушбу сонда:

Шовосил ЗИЁДОВ. Алоуддин Абу Бакр ибн Ма'суд ибн Аҳмад Косоний.....	2
---	---

ИСЛОМ ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН

Исмоил САИФНАЗАРОВ. Заки Валидийнинг "Ислом ва география фани" мақоласида ислом олимларининг география фани ривожига тугган ўрнининг ёритилиши.....	3
Нигора ЮСУПОВА. Исломда никоҳ муносабатлари: ўзаро тенглик, ҳуқуқ ва мажбурият.....	6
Абдумутал ҚАМБАРОВ. Тасаввуфий таълимотлар ва улардан оқилона фойдаланиш масаласи.....	9
Бобир НАМОЗОВ. "Яқин" тушунчасининг гносеологик мазмуни.....	10
Махмудали ДЕҲҚОНОВ. Исломда оила ва никоҳ муносабатлари маданиятининг шаклланиши.....	13
Зубайдилло НАРЗИЕВ. Ҳужвирий тасаввуфий-фалсафий дунёқарашининг шаклланиши.....	15
Умида СОДИҚОВА. Куръони каримда Исо алайҳиссалом ва Инжил ҳақидаги маълумотлар.....	18
Ф. МАРДОНОВА. Толерантлик контекстида диний бағрикентликнинг долзарб масалалари.....	21
Мухаббат ИБРАГИМОВА. Ислом фикрида мерос нормалари.....	23
Феруза МАМАДАЛИЕВА. Исломий қадриятларда шахс масъулияти муаммоси.....	25

ВАТАНИМИЗ ТАРИХИ

Мухтор ШАМСИЕВ. Қўқон хонлигининг дашт кўчманчилари билан ўзаро алоқалари тарихидан.....	28
Жасур ЯҚОБЖАНОВ. Мустақиллик даври тадқиқотларида Қўқон хонлиги тарихшунослигининг айрим масалалари.....	31
Исмоилжон ХҲҲАХОНОВ. Ўзбеклар миллий идентиклигининг хориж тадқиқотларида ўрганилиши масалалари.....	34
Лобар АСРОРОВА. Самарқанд қозоғи тарихидан.....	36
Жасур ҒОФУРОВ. Жиззах воқисининг зардуштий қавмлари хусусида.....	38
Дилфуза ДЖУРАКУЛОВА. Ўзбекистон палеолитини ўрганишда халқаро экспедицияларнинг амалий аҳамияти.....	40
Назкат МАТКАРИМОВА. Исирикдон ва унинг тарихига бир назар.....	42

АҲДОДЛАР ИЛМИЙ МЕРОСИ

Маърифат ХАНДАМОВА. Абу Райҳон Беруний ва қадимги ҳинд фалсафа мактаблари.....	44
Гулбаҳор ИСАНОВА. Абу Исо Термизий ҳадисларида таълим-тарбия масалалари.....	47
Дилфуза БАҲРИЕВА. Абдурахмон Жомийнинг "Баҳористон" асаридаги ахлоқий қарашлари.....	49
Ихтиёр ҚУШШАҚОВ. Дунё кутубхоналарида "Ҳидоя" асарининг сақланиши ва уларни ўрганишнинг долзарблиги.....	51
Яхёҳўжа АБДУРАҲМОМОВ. Нажмиддин ибн Нухайм яшаган даврдаги сиёсий ва ижтимоий муҳит.....	53
Aziza SAMAROVA. Jahon Oro begim.....	54
Ойбек ШАВҚИЕВ. Беруний асарларида зардуштийликнинг таҳлили.....	56

МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШ

Xurshida ASHUROVA, Sabohiddinxon MAQSADOV. Dunyoga xavf solayotgan terroristik tashkilotlarning reaksiyon mohiyati.....	58
Оттабек БОҚОНИЙ. Тарбияси яхши бўлса фарзанднинг (шеър).....	59
Ботирали РАҲМОМОВ. Глобаллашув жараёни ва ёшларни "оммавий маданият"нинг салбий таъсиридан ҳимоя қилиш масаласи.....	60

ИЖТИМОИЙ ИНСТИТУТ

Ҳакимбек ЁРҚУЛОВ. Миллий интеллектуал салоҳиятда зиёлиларнинг ўрни.....	62
Акбар САИТҚОСИМОВ. Ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлигини таъминлашда маҳалла институтининг ўрни.....	64
Оттабек БАКИРОВ. Мамлакатимизда фуқаролик жамиятини қуришнинг шарт-шароитлари.....	66
Gavhar BARAKAYEVA. Sana't - ma'naviy tarbiyaning muhim omili.....	68
Абдурахмон АБДУҲАЛИМОВ. Мустақиллик арафасида ва истиқлол йилларида Фарғона водийси қишлоқ аҳолисини ижтимоий ҳимоя қилиш масалалари.....	70
Ш. АБДУЛЛАЕВ. Марказий Осиё минтақасидаги интеграция жараёнларида миллий манфаатлар муштараклиги.....	72
Sardor QUVVATOV. Estetik tarbiya va uning turmush estetikasini shakllantirishdagi ahamiyati.....	74
Иномжон АСАТУЛЛОЕВ. Эрих Фроммнинг "инсонпарвар" руҳият таҳлили.....	76
Фаррух ЮЛДАШЕВ. Жамият ҳаётида ёшларнинг фаоллигини ривожлантиришнинг маънавий-ахлоқий негизлари.....	78
Сирож РҲИММУРОДОВ. Оилада соғлом муҳит - обод турмушнинг маънавий асосидир.....	79
Баҳора ХОДЖАЁРОВА. Мактабгача ёшдаги болаларга ўқитишнинг табақалашган маданий кўникмаларини бериш.....	81
Шоира КУБАЕВА. Цивилизация тараққиётида инновацион менталитет ва тафаккур.....	83
Мустафо ХИДИРОВ. Дунёнинг эзотерик манзараси шаклланишининг ижтимоий-маданий омиллари.....	84
Нодир ТОҒАЕВ. Ёшларнинг миллатпарварлиги - ижтимоий тараққиётнинг муҳим омилли.....	87
И. АРЗИМАТОВА, Д. ЗОКИРОВА. Фуқаролик жамияти шароитида маънавий баркамол авлод тарбияси.....	89
Наргиза ЭПЧАНОВА. Глобаллашув тушунчасининг концептуал-методологик асослари.....	90
Lutfullo JAMOLOV, Dilnura SUVANOVA. Barkamol avlodning estetik madaniyatini rivojlantirishda komil inson tarbiyasining o'rnini.....	93

ФАЛСАФИЙ МУШОҲАДАЛАР

Махбуба АБДУЛЛАЕВА, Гулчеҳра ҒАФҒАРОВА. Фалсафада конструктивизм муаммоси.....	96
Сардор АБДУЛЛАЕВ. Инновацион муҳит ва меҳнат эстетикасининг ёшлар фаолиятида акс этишининг фалсафий масалалари.....	98

ИМОН БУҲОРИЙ РИВОЯТ ҚИЛГАН ҲАДИСЛАР

Олимжон ИСАХОН ўғли. Бир ёки икки қизни тарбиялаган киши ҳақида.....	100
--	-----

Estetik tarbiya va uning turmush estetikasini shakllantirishdagi ahamiyati

Mazkur maqolada turmush estetikasini shakllantirishda estetik tarbiyaning roli xususida fikr yuritilgan. Insonning ma'naviy barkamolligida estetik tarbiyaning ba'zi jihatlarini etnoestetik jihatdan ko'rsatib berilgan. Turmush estetikasini shakllantirishning ba'zi masalalari tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: jamiyat, estetik tarbiya, globallashuv, oila, madaniyat, estetik did, estetik ong, san'at.

This article is about role of aesthetic upbringing in forming life aesthetics. Some peculiarities of aesthetic upbringing in spiritual perfectness of person are defined from ethnoaesthetic side. Some problems of aesthetic upbringing are analysed.

В статье обсуждаются вопросы роли эстетического воспитания в формировании эстетики бытия. Анализируются некоторые аспекты эстетического воспитания, в частности этноэстетические, влияющие на духовное совершенство человека. Показаны некоторые стороны формирования эстетики бытия.

Jamiyat iqtisodiy ishlab chiqarish, industrial va texnologik jihatdan qanchalik darajada taraqqiy etmasin, har bir tarixiy davrda uning ma'naviy sohasida ma'lum muammolar yuzaga kelaveradi. Ayniqsa, insonning ma'naviy-ma'rifiy kamoloti, yoshlar tarbiyasi borasidagi muammolari barcha jamiyatlar, olimu fuzalolar, faylasuflar va mutafakkirlar diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya ishlari har qanday jamiyat, davlat taraqqiyotini belgilab berishi bilan xarakterlanadi. Tarbiya ishlariga e'tibor bermagan jamiyat, millat, mahalla, oila oxir oqibatda ma'naviy qashshoqlikka yuz tutib boraveradi. Ayniqsa, globallashuv jarayonida mazkur masalaga e'tibor qaratmaslik ijtimoiy-ma'naviy inqirozning bosh omiliga aylanadi.

Hozirgi paytda globallashuv jarayoni jamiyatning barcha sohalarini qamrab olganligi hech kimga sir emas. "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda, - deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, - Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada xushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim" [5: 3]. Darhaqiqat, farzandini dunyoga keltirgan har qaysi ota-onaning jismonan sog'lom, aqlan teran, yetuk, komil inson bo'lib yetishishi va baxtli hayot kechirishini xohlaydi. Kelajakda farzandlarini jamiyat hayotida o'z o'rnini topib, unga rahmatlar olib kelishlarini va bundan g'urur tuyg'usini tuyushni istashadi. Aksincha, yaxshi tarbiya topmagan farzandlar qilmishi ota-onaga isnod, uyat keltirib, ularning qaddini bukadi. Bu ikki jarayonning qay darajada namoyon bo'lishi jamiyat, mahalla va oilada beriladigan estetik tarbiyaga bog'liqligini anglash qiyin emas.

Tarbiyaning boshqa ko'rinish va shakllari bilan bir qatorda, oilada, farzand kamolotida estetik tarbiya ham muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot tufayli, ayniqsa keyingi asrlarda insoniyat turmush tarzi tarkibiga nihoyatda rang-barang omil va vositalar kirib keldi. Elektr, televideniye, zamonaviy transportlar, kompyuter texnologiyasi, zamonaviy telekommunikatsiya vositalari, internet kabi ijtimoiy-texnikaviy kashfiyotlar uning tabiatini o'zgartirib yubordi. Shu bilan birga inson faoliyati, hayotiy muhitining tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida chuqur

nomutanosibliklar ham yuzaga keldi.

Hozirgi globallashgan, hayot suratlari tezlashgan, axborot asrida har bir oilaga, kishilarga yetib kelayotgan turli axborotlarni nazorat qilib turishning iloji yo'q. Yoshlar kundalik hayot tarzida axborot texnologiyalaridan, internetdan, ommaviy axborot vositalaridan o'ziga kerakli bo'lgan va bo'lmagan ma'lumotlarni olishayapti. Buning ta'sirida ularning ongiga milliyligimizga to'g'ri kelmaydigan, sharqona turmush tarziga zid bo'lgan g'oyalar, qarashlar ta'sir o'tkazmoqda. Ko'r-ko'rona g'arb madaniyatiga taqlid qilish: kiyinishda, o'zaro muomalada, ota-onaga va do'stlarga, umuman, hayotga bo'lgan munosabatda ko'zga tashlanayapti. Hayotga yengil qarash (ichkilikbozlik, giyohvandlik, tamaki chekish, internet kafelar, tungi ko'ngilochar maskanlarda vaqt o'tkazish va boshqalar) yosh o'smirming o'z hayoti yo'lini topishida ko'p qiyinchiliklarga duch keltiradi. Bunday holatlar oiladagi xotirjamlikka va barqarorlikka putur yetkazadi. Shuning uchun ham mazkur muammoli vaziyatning yechimini topishda, eng avvalo, sog'lom turmush tarzini har bir ota-onaga o'z oilasida amalga oshirish kerak. Bu muammoning yechimi yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, kishilar ongida turmush estetikasini shakllantirish jarayoniga borib taqaladi.

Bilamizki, voqelikda yashayotgan har bir inson, o'z estetik qarashlari, o'z estetik ideallari, tasavvurlari, aql-zakovati bilan turmushini go'zal qilishga harakat qiladi. Uydagi jihozlar, buyumlar va boshqa predmetlarning tartib bilan joylashishiga alohida e'tibor qaratadi. Masalan, do'kondan xarid qilingan o'rta miyona mebel ham xonaga did bilan joylashtirilsa, xonaning ko'rkiga ko'rk qo'shadi. Bu holat esa, kishining estetik zavqlanishiga, ruhiyatining tatiklashishiga, kayfiyatining ko'tarilishiga olib keladi. Shuningdek, oddiygina oshxona anjomlari ham turmushda bezak bo'lishligi tahlil etilib, har xil tovoq, lagan, ko'za, kosa, choynak, piyola, qoshiq va hokazolar xonadonlarda avaylab saqlanadi. Bular nafaqat inson ehtiyojini qondirishga, balki turmushini chiroyli qilishga xizmat qiladi.

Oiladagi odob, xulq-atvor bevosita ko'cha-kuyda, bayramlarda, to'ylarda, uchrashuvlarda namoyon bo'ladi. Zero, hamma joyda inson ozoda kiyinishi, qalbini pok tutishi, yurish-turishida go'zallikka e'tibor berishi zarur. Ust-boshi kir va g'ijimlangan, sochlari hurpaygan odam ko'zga xunuk ko'rinadi va unga e'tibor qaratgan kishining ruhiyatini yoqimsiz hislar egallab olib, uning kayfiyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zining tashqi qiyofasiga e'tibor berib yurish, insondagi ixchamlik va ko'rkamlik kishini yanada

go'zallik
kunda k
haddan
qilib ki
ko'p ho
yigitlar
jinsi shi
mazmur
yoqimsiz
ega bo'lg
chiroyli
atvorini

Turm
zohiriy
insonni
didli va
axloqiy
hayotini
bosqich
ona allas
Insonni
buvilarni
aka-ukal
muhim
inson b
an'ana
tarbiya
oqibatli
tarbiyani
turmush

Estet
estetik m
alohida
tarbiyasi
mumkin
ideal ka
estetik
Estetik t
to'g'ri id
voyaga
burchidi
go'zallig
ohangi,
tarbiyal
vazifasi
ajratib
boyitib b
biriga o'z
tarbiyal
etish, jam
tarbiya k

Ola
hayotini
u doimo
go'zallik
Shuning
nafosat o
yetishga
voqyelik
Voqelikd
bir-birida
anglaydi
bo'lgan t

go'zallashtiradi. Lekin ba'zi qizlar va ayollarda bugungi kunda keragidan ortiq pardoz va andoz qilish, timoqlarini haddan ortiq o'stirish, sochini kalta qilib kestirish, g'alati qilib kiyinish ularni go'zal qilib ko'rsatmasdan, balki ko'p hollarda bachkanalashtirib ko'rsatadi. Shuningdek, yigitlarning ham bachkana ko'rinishda soch qo'yishi, yirtiq jinsi shim kiyishlari, badani va qo'llariga turli rangda va mazmundagi rasmlarning tushirilishi ham kishi ruhiyatida yoqimsiz hisslarni uyg'otadi. Ammo haqiqiy estetik tarbiyaga ega bo'lgan inson o'zining chiroyli yurishi, qaddi-qomatini chiroyli tutishi, chiroyli gapirishi bilan o'zining go'zal xulq-atvorini namoyon etadi.

Turmush estetikasida insonning butun botiniy va zohiriy fazilatlari namoyon bo'ladi. Shuningdek, har bir insonning oddiy va chiroyli kiyim-boshni tanlab kiyishi, didli va farosatli bo'lishi oilaga fayz kiritib, insonning axloqiy va ma'naviy go'zalligini namoyon qiladi. Inson hayotini turmush tarzi, hayot faoliyati bilan bog'liq ravishda bosqichma-bosqich ko'rib o'tadigan bo'lsak, yosh go'dak ona allasi, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan voyaga yetadi. Insonning ma'naviy kamolotida oila tarbiyasi, bobo va buvilarning nasihati, ota-onalarning tarbiyasi, opa-singil, aka-ukalarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan mehr-oqibatlari muhim o'rin tutadi. Insonning ma'naviy go'zal va komil inson bo'lib tarbiyalanishida xalqimizning boy urf-odat, an'ana, udum va marosimlari katta o'rin tutadi. Bizda tarbiya yoshlikdan o'zidan kattani hurmat qilishga, mehr-oqibatli bo'lishga yo'naltirilgan holatda olib boriladi. Mazkur tarbiyaning alohida yo'nalishi sifatida estetik tarbiya turmush estetikasini shakllantirishda alohida o'rin tutadi.

Estetik tarbiya kishilarda estetik his, estetik ong va estetik munosabatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaning alohida shaklidir [2: 466]. Estetik tarbiyani mehnat tarbiyasining ajralmas bir qismi sifatida ham tushunish mumkin. Kishilarda estetik his-tuyg'u, estetik did, estetik ideal kabi estetik ong unsurlarining shakllanib borishi estetik tarbiyaning rivojlanish uchun zamin yaratadi. Estetik tarbiya asosida hayotdagi va san'atdagi go'zallikni to'g'ri idrok etish, kishilardagi estetik ehtiyojlarni tarbiyalab voyaga yetkazish, har bir ota-ona, o'qituvchi, ustozning burchidir. Bolalarni yoshligidan boshlab tabiat va san'at go'zalligi olamiga olib kirish bilan birgalikda, kuy, musiqa ohangi, nafs gullar tarovati va chiroyi, san'at asarlari bilan tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Estetik tarbiyaning vazifasi obyektiv olam go'zalligi xilma-xil ko'rinishlarini ajratib yoshlar dunyoqarashini nafosat tuyg'ulari bilan boyitib borishdan iboratdir. Estetik tarbiya kishilarning bir-biriga o'zaro munosabatini aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Voqelikni mushohada etish, jamiyatdagi xilma-xil ehtiyojlarni qondirishda estetik tarbiya kishiga ruhiy quvvat bag'ishlaydi [3: 116].

Olamda yashayotgan har bir inson baxtli yashashga, hayotini mazmunli o'tkazishga intilishi bilan birgalikda, u doimo o'z turmushi shirin bo'lishini, hayoti ezgulik va go'zallikka boy manzaralar bilan o'tishini orzu qiladi. Shuning uchun kishilik jamiyati vujudga kelganidan boshlab nafosat olamining mohiyati, ma'no va mazmunini anglab yetishga intilib kelingan. Inson o'z amaliy faoliyati bilan voqelikni o'zlashtirib, uni o'zgartirishga harakat qiladi. Voqelikdagi go'zallik va xunuklik, kulg'ililik va fojiaivilikni bir-biridan farqlab, dunyoning asl mohiyati qandayligini anglaydi. Bular barchasi kishining yashashi uchun zarur bo'lgan talab va ehtiyojlar asosida amalga oshadi. Mana

shunday his-tuyg'ular, kechinmalar estetik tarbiya jarayonida amalga oshadi. Estetik tarbiya masalasini gapirganda estetik omillarni ham hisobga olish lozim. Estetik tarbiyani bola ongiga singdirishda muayyan estetik fazilatlarni anglab yetish va shu asosda tarbiya jarayonini olib borish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, estetik tarbiya hyech qachon kishidan muayyan vaqtni talab qilmaydi. Balki har bir bosgan qadamimizda xilma-xil xususiyatlar bilan hayotimizda hamrohimiz bo'lib boraveradi va bizni yuksak mas'uliyat, chidamli va bardoshli bo'lishga chorlaydi.

Estetik tarbiya badiiy tarbiya bilan doimo aloqada bo'lib keladi. Badiiy tarbiya ijod jarayonidagi rang-barangliklar olamini inson tomonidan estetik tarzda anglash va o'zlashtirishning bir qismidir. Estetik tarbiya esa, jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qilishga ko'mak beruvchi muhim unsur bo'lib, u insonning didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir [1: 159]. Estetik tarbiyani olib borishda, estetik qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishda, o'tmish madaniyatimiz va milliy estetik tarbiyamizni bir-biri bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqining estetik tarbiyasi milliy qadriyatlarimiz va undagi insoniylik tamoyillari bilan bog'langan. Bolalarni estetik tarbiyalash, ularning aqliy, axloqiy, jismoniy yuksalishida katta rol o'ynaydi. Hattoki, maktablardagi va o'rta maxsus ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni o'zining milliyligi jihatidan butun jahon xalqlari diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Ispaniyalik bir faylasuf olim jahondagi ko'plab xalqlarning milliy an'analarini, axloqiy-estetik tarbiyasini o'rganib, Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida ham bo'ladi hamda o'z vataniga qaytgach, "Hozirgacha o'rgangan, tadqiq qilgan barcha ishlarimni o'n besh yoshli o'zbek qizalog'ini o'zidan turib, qo'lini ko'ksiga qo'yganchoy uzatishdagi odobiga, nazokatiga almashtirishga rozi edim" [4: 328] deb aytadi. Bu faylasufning fikrlaridan ko'rinib turibdiki, o'zbek oilasidagi estetik tarbiyaning yoshlar ongiga singdirilishi mehr-muruvvatga, latofatga, mehmonni kutishga, ularni kuzatishga va hokazolarga bo'lgan munosabatini tarbiyalash orqali turmush estetikasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Insonning estetik tarbiyasi uning madaniyati va ma'naviyatida namoyon bo'lar ekan, u doimo shular asosida go'zallikni his qilish, nafosat olami chiroyidan bahramand bo'lish, yaxshi fazilat va xislatlarga ega bo'lish kabi tuyg'ularni o'zida mujassam etmog'i lozim. Shu bois insonning estetik tarbiyasi mukammal va serjilo ko'rinishga ega bo'lishi uning ma'naviy-madaniy jihatlariga bevosita bog'liqdir. Bular orqali inson faqatgina go'zallikni his etib qolmasdan, balki o'zida yuksak hissiyot, odat, ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi. Ayniqsa, milliy madaniyat va ma'naviyat o'z davrining mafkurasi hamda davr talab-ehtiyojlariga mos kelishi kerak. Chunki har qanday estetik tarbiyada madaniyat va ma'naviyatning hamohangligi, birligi va mutanosibligi bo'lishi lozim.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni taqdim etish lozim deb topdik:

birinchidan, estetik tarbiya turmush estetikasini shakllantirishdagi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi va turmush go'zalligini, nafosatini ko'rsatib beradi;

ikkinchidan, estetik tarbiyaga ega kishilar, mahalla o'ziga qarashli hududning tozaligi, obodligi, ko'rkamligini hamda fuqarolarning hamjihatligini ta'minlab beradi;

uchinchidan, estetik tarbiya orqali kishilarda tabiat va jamiyatni estetik(nafosatlik) o'zlashtirish va baholash barobarida estetik madaniyat ham shakllana boradi;

to'rtinchidan, estetik tarbiya o'tmish ma'naviy merosimizga hurmat hissini uyg'otish, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish uchun zamin yaratib beradi;

beshtinchidan, turmush estetikasini shakllantirish orqali xalqimizning turfa xil urf-odatlar, an'analar, marosimlar, to'y-u tantanalar etno-estetik qadriyat tarzida baholanadi va ularni o'tkazishda turli dabdabaga va isrofchilikka yo'l qo'ymasdan turib chiroyli, tartibli o'tkazishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Sher, Bahodir Usmonov, Erkin Umarov. Estetika. – T., 2008.
2. Falsafa qomusiy lug'at. – T., 2004.
3. G'aybullayev O., Estetika. – Samarqand, 2004.
4. Мавлонова Р., Тўраев О., Холиқбердиев К. Педагогика. – Т., Ўқитувчи, 2001.
5. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Самарқанд газетаси, 99, 2016 йил 10 декабр.

Эрих Фроммнинг “инсонпарвар” руҳият таҳлили

Ушбу мақолада неофрейдизмнинг таниқли намоёндаларидан бири бўлган Эрих Фроммнинг инсонпарвар руҳият таҳлили ёритилган. Инсонпарвар руҳият таҳлили фрейдизмнинг ислоҳ қилган таълим сифатида шаклланиши таҳлил қилинган.

Таянч сўзлар: инсонпарварлик, эркинлик, озодлик, босқинчилик, зўравонлик, эътиқод.

The analysis of humane spirit of Erich Fromm, one of the leading representatives of neofreudism is given in this article. Formation of humane spirit as reformed Freudian teaching is described.

В данной статье проведён анализ гуманного духа Эриха Фромма, одного из ведущих представителей неопрейдизма. Кроме этого проведён анализ формирования гуманного духа как реформированного фрейдизмского обучения.

Неофрейдизм – бу асосан АҚШда кенг ёйилган замонавий фалсафа ва психология йўналишидир. Унинг тарафдорлари З. Фрейднинг руҳий таҳлилини американинг социологик назариялари билан бирлаштиришди. Неофрейдизмнинг таниқли намоёндаларидан бири сифатида Эрих Фроммни келтириш мумкин. Фроммнинг дастлабки дунёкараши Фрейд назариясининг кучли таъсири натижасида пайдо бўлган. Гарчи Фромм кейинчалик фрейдизмнинг баъзи қарашларига қўшилмасдан ортодаксал руҳий таҳлилдан йироқлашиб ўзининг шахсий назариясини яратган бўлса ҳам, у ёки бу маънода, Фрейд Фроммнинг дунёкарашида чуқур из қолдирган эди. У руҳият таҳлили ғояларини қайта кўриб чиқиб, Фрейдни психологияни фалсафадан ва ахлоқдан ажратиб қўйганлиги учун танқид қилади. Фрейд инсон ҳаёти мазмунини ахлоқий ва ҳуқуқий мезонларини чеклаб ўтади. Ваҳоланки, айнан шулар инсон ҳаёт-фаолиятининг шакллантирувчи ибтидоси бўлиши шарт, дейди Фромм. Бундай эътироз, албатта қисман бўлиб, Фрейд бутунлай фалсафий муаммолардан ташқарида бўлмаган. Зеро, у кўтарган кўпгина масалалар ҳамда инсоний муаммолар фалсафий жиҳатдан таҳлил қилинган. Лекин Фромм руҳият таҳлилининг ташқи зиддиятларини тўғри илғаб олди, яъни чекланган фалсафий тизимлар орқали онгсизлик ҳақида мулоҳазалар юритиб, уларнинг аниқ ички руҳий жараёнларини, ишлаш тузилмаларини тадқиқ қилишга киришди. Э. Фромм фикрича, руҳият таҳлили инсон ҳақидаги билимни бойитишга ёрдам берган бўлса ҳам, Фрейд таълимоти инсон қандай яшаши кераклиги, нима қилиши шартлиги ҳақидаги билимларни бойитмади. Худди шу маънода Фроммни К. Юнгнинг “руҳият таҳлили” ҳам қониқтирмайди. Унда ҳам инсон мавжудлиги ҳақидаги саволларга тўлиқ жавоб ололмайсиз. Ана шу икки таълимотга зид равишда Фромм фалсафий-ахлоқий муам-

мони кўриб чиқишга уринади. Унинг диққат марказида турган масалалар қадрият ва ҳаёт мазмунига оид бўлган инсон борлиги, ахлоқий мезонлар ва ҳуқуқий низомлардан иборат эди. Фрейд сингари, инсоннинг “табиий” ва “маънавий” ҳаёт соҳалари ўртасидан чиқиқ тортиш ўрнига, Фромм инсонпарвар ахлоқшунослар анъаналарига мурожаат қилган. Масалан, Арасту ва Спиноза инсонни ахлоқийликда кўриб, ахлоқий ҳаёт мезони манбаи-ни очишга ҳаракат қилганлар. Ахлоқий қонун-қоидалар инсон мавжудлигининг ички сифатларига асосланиши шарт. Уларнинг бузилиши шахснинг руҳий оламини ажралиб, майдалашиб кетишига олиб келади.

“Инсонпарвар” руҳият таҳлилининг мақсади – инсоннинг ўзлигини англашга ёрдам беради, бу ҳаракат ҳаётийликка, самарадорликка йўлрилан бўлади. Бу ўз ўрнида инсонпарвар ахлоқий қадриятларни ўзлаштириб олишга бориб тақалади, ўзининг ички табиатини библиши, “ҳаётийлик санъати”ни эгаллашни талаб қилади. Бу мақсадга эришиш Фромм фикрича, инсон мавжудлиги ва моҳияти муаммоларига мурожаат қилинганда шахснинг фалсафий-ахлоқий ва ижтимоий-иқтисодий жиҳатларига асосий эътибор берилади. Бу шундан далолат берадики, “психология на фалсафа, на ахлоқдан, на социология ва иқтисоддан ажралмаган бўлиши шарт” [1: 443].

Фромм руҳий таҳлилнинг ислохатчиси сифатида намоён бўлган. Фроммнинг психоанализида ислохатчилиги нимада намоён бўлади? Биринчидан, Фрейддан фарқли ўлароқ биологик омилларнинг ролини камайтирмаган ҳолда, инсон табиатини, асосан, тарихий шартланган деб ҳисоблади. У “инсон муаммоси, биологик ва маданий омилларнинг қарама-қарши қўйиш терминларида тўғри ифодаланган бўлиши мумкин” [2: 59], деган Фрейднинг қарашидан воз кечди.

Фрейд деб ҳисобланган биологик қониқтириш эса, инсон табиатининг дунёга муносабатини кўрсатиш бошиданок психологиянинг таълимотларини очишнинг дунёга

Демак, Фроммнинг аҳамиятлиги намоён бўлган. Ушбу энергия, шунинг таъсири кўрсатиш инсон табиатининг мустақил олиб келма аҳамияти иборат бўлган специфика

Фрейд чуқур эътибор ҳуқуқий раъйлар қўйиш чиксада, ички қониқтиришлар сифати

Фромм ҳаракат қилиш марта шахс У инсоннинг метод озо атворнинг беради [3]. бошқарадидан йўналишлар қилгандадан ҳалос деб ҳисобланган объектив тўлдирилади эга эканлиги мазмунини қадим замон деб ҳисобланган Фрейд соҳасига эътибор қилиш

Ўзини

Фойда

1. Фромм
2. Фрейд
3. Фрейд
4. Фромм
5. Фромм